

Ajoyib inson, barcha birdek sevgan ustoz, akademik BEKMURATOV TO'LQIN FAYZIYEVICH olamdan o'tganligi munosabati bilan TATU ma'muriyati marhumning oila-a'zolariga, yaqinlariga chuqur ta'ziya bildiradi.

Akademik TO'LQIN FAYZIYEVICH butun umrini ta'limga, ilm ulashishga bag'ishlagan haqiqiy jonkuyar ustoz, chin do'st, mehnatsevar hamkasb, yaxshi maslahatchi sifatida hamma hurmat qilar edi. O'z sohasida juda sermahsul faoliyat olib borgan, sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha xalqaro ilm-fan sohasida katta mavqega ega olim edilar. Shuningdek, TO'LQIN FAYZIYEVICH qator darsliklar, o'quv qo'llanmalar, patentlar va maqolalar muallifidir.

Jonkuyar olim, mehribon ustoz, samimiy inson akademik TO'LQIN FAYZIYEVICHning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

TATU ma'muriyati